

Raqamlashib Borayotgan Zamonaviy Oliy Ta'limda Pedagogning Kasbiy Kompetentsiyalarini Rivojlantirishning Zamonaviy Mexanizmlari

I. Mamirov,

Farg'ona politexnika instituti

A. Sobirov,

Farg'ona politexnika instituti

a.s.hasanov@ferpi.uz

A. S. Xasanov,

Farg'ona politexnika instituti

azamathasanov8@gmail.com

I. Meliboyev

Farg'ona politexnika instituti

Kalit so'zlar: umumiy pedagogik tayyorlash, tizimli yondashuv, modulli o'qitish, innovatsiya, Mutaxassislik kompetensiyasi.

Zamonaviy pedagog dars masg'ulotlarini olib borayotganda darsga qo'yiladigan didaktik talablar quyidagicha:

- Ta'limiy topshiriqlari uning barcha elementlarini hisobga olgan holda aniq qo'ya bilish;
- O'quv rejasi va darsning maqsadini hisobga olgan holda hamda o'quvchilarning tayyorligi, darsning optimal mazmunini belgilash.
- Darsda va uning har bir bosqichida o'quvchilarni bilimlarni o'zlashtirishlarini hisobga olish;
- Darsdagi jamoa va individual ishlash yo'llarmi hisobga olgan holda samarali metod, usul va shakllarni tanlash;
- Darsda barcha didaktik prinsiplarni qo'llash;
- O'quvchilarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish; [1].

Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlarning guruh-guruh bo'lib hayot kechirishi sababli bolalarga tirikchilik o'tkazish yo'lidagi faoliyat (o'simlik mevalari, ildizlarini terish, hayvonlarni ovlash)ni tashkil etish borasidagi tajribalarni o'rgatish guruh a'zolari tomonidan birdek amalga oshirilgan. Bilimlar, aksariyat hollarda, mehnat va o'yin jarayonlarida o'zlashtirilgan. Mehnat faoliyatini tashkil etish jinsiy xarakterga ega bo'lganligi bois o'g'il va qiz bolalarni tarbiyalashda o'ziga xos jihatlarni ko'zga tashlagan.

Mutaxassislik	kompetensiyasi	—	yuqori	saviyadagi	kasbiy
faoliyat bilan	shug'ullanish	va	o'zining	kasbiy	rivojlanishini
loyihalashtirish					qobiliyati;
Ijtimoiy kompetentlik	-	birgalikdagi	(jamoaviy,		guruhlardagi)

kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish, hamkorlik qilish va boshqaruvchilik mavqeiga mansub kasbiy muloqot usullarini qo'llash qobiliyati;

Ta'limiy kompetentlik - kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qiziqish, ta'lim faoliyati maqsadini qo'ya olish, ta'lim faoliyatidagi yaratuvchanlikni rivojlantirishga intilish, pedagogik va ijtimoiy psixologiyaning asoslarini qollay olish qobiliyati. [1].

Har qanday ta'lim tizimining negizida kelajak avlodning taqdiri bilan xalq manfaatlari yotadi. Bu manfaatlarni ro'yobga chiqarishi uchun yosh avlodning shaxsiy fazilatlari yetakchi o'rin tutadi. O'sib kelayotgan yosh avlodning fazilatlari bilan kasbiy bilimdonlik darajasi, ularga shu kunda berilayotgan bilimlarning turi, hajmi va ta'lim-tarbiyaning sifatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Shu kungacha insoniyat yaratgan pedagogik usullar kamchiliklardan holi emas. Shuning uchun usullar nazariyasi tinimsiz taraqqiy etib, barcha o'qituvchi va pedagoglar talabga birday javob beruvchi usullarni izlagan. Shu izlanishlar natijasi o'laroq, o'quv jarayonining texnologiyalashgan usuli vujudga keldi [2].

Zamonaviy pedagog olimlarimiz tomonidan ilmiy asoslangan, ijtimoiy-pedagogik jamoatchiligi sharoitiga mos bo'lgan innovatsion ta'lim yondashuvlarini yaratish va uni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilib kelmoqdalar.

Tizimli yondashuv tamoyillarini o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyatida qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lishi;

o'qituvchi faoliyatni texnologiyalashtirish ijtimoiy zaruriyat ekanligini tushunish;

o'qituvchi ta'lim jarayonidagi innovatsion texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslarini bilishi va amaliy faoliyatida qo'llay olish ko'nikmasining mavjudligi;

o'qituvchi tahsil oluvchilar faoliyatini loyihalash innovatsion pedagogik texnologiyaning tamoyillardan kelib chiqadi. Bundan kelib chiqib, o'qituvchi pedagogik texnologiya tamoyillarini o'zining faoliyatini loyihalashtirishda qo'llay olishi;

o'quv jarayonini modulli o'qitish texnologiyasi asosida tashkillashtirishning mohiyatini o'qituvchi tushunishi va faoliyatini loyihalashtirishda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim [2].

modulli o'qitish texnologiyasi ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil qilishdagi o'rnini, uning nazariy, amaliy asoslarini bilishi va o'qituvchi hamda tahsil oluvchilar faoliyatini loyihalashtirishda asos sifatida foydalanish ko'nikmasining mavjudligi;

o'qituvchi o'zi o'qitadigan fanlarni loyihalab o'qitishning zamonaviy kontseptsiyasi haqida tasavvurga ega bo'lishi va faoliyatini samarali tashkil qilishdagi ahamiyatini bilishi;

o'qituvchi o'qitadigan fanining metodik tizimini ishlab chiqish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

ta'lim texnologiyasi innovatsion modelining o'qituvchi faoliyatini tashkil etishdagi o'rnini va ahamiyatini bilishi;


o'qituvchi va tahsil oluvchilar faoliyatini loyihalashtirishning asoslaridan biri sifatida o'quv mashg'ulotlari loyihalarini tuzish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim;

o'qituvchi o'quv mashg'ulotlarni loyihalashtirishning didaktik shart-sharoitlarini bilishi va shu asosida o'zi o'qitadigan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlari loyihalarini tuzish ko'nikmasiga ega bo'lish;

o'qituvchi o'quv jarayonini rejalashtirish va loyihalashtirishning nazariy asosini bilishi hamda uni o'quv amaliyotiga qo'llay olishi;

Ko'pincha «innovatsiya» atamasi o'rniga unga yaqin turdagi atamalar ham ishlatilmoqda. Masalan, isloh modernizatsiya, takomillashtirish, zamonaviylashtirish kabilar. Ular tahlil etilayotgan tushunchaning ma'nosini har doim ham to'la ochib beravermasa-da, asosiy narsa – yangilikni, o'zgarishlarni ifodalaydi [2].

Pedagogik texnologiya quyidagi o'qitish texnologiyalaridan tarkib topadi:



Yuqoridagilardan ko'rinadiki, pedagogik texnologiya ta'limda texnologik yondashuv, shu jumladan, pedagogik faoliyatning turli sohalarini o'zlashtirishda yangi imkoniyatlarni ochadi, ya'ni aniq, natijalarni oldindan aytib berish, pedagogik jarayonlarni boshqarish; amaliy tajribalarni ilmiy asoslash va tizimlashtirish hamda undan foydalanish; ta'lim-tarbiya sohasidagi muammolarni yechish; shaxs rivojlanishi uchun qulay sharoitlarni yaratish; mavjud bo'lgan manba va imkoniyatlardan samarali foydalanish; yangi texnologiyalar modellarini ishlab chiqishi zarur bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, va boshqalar Umumiy pedagogika - T.: «Fan va texnologiya», 2018, 528 bet.
2. Tojiyev M. va boshqalar. O'qituvchi faoliyatini loyihalash: Uzluksiz ta'limda modulli texnologiya// Monografiya. -T.: "Turon-Iqbol", 2017 y. – 280 b.
3. Teshaboyev, A. M., Rubidinov, S. G., & Meliboyev, I. A. (2022). Types and Applications of Corrosion-Resistant Metals. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science, 3(5), 15-22. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/CMP5F>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/gazdan-xavfli-ishlarni-xavfsiz-olib-borishni-tashkillashtirish-bo-yicha-xavfsizlik-tiziml>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/defoliant-olish-jarayonini-fizik-kimyoviy-asoslari>
6. <https://www.nveo.org/index.php/journal/article/view/1064>
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionnyy-podhod-k-obucheniyu-kursa-himiyav-napravlenii-tehnologiya-pischevyh-produktov>
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-zhidkogo-topлива-poluchennogo-pererabotkoy-ispolzovannyh-shin-metodom-gazovoy-hromatograficheskoy-mass-spektrometrii-gc-ms>
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/technological-review-for-using-polyacrylic-membranes-in-flue-gas-utilization>
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/razrabotka-shemy-ispolzovaniya-poglotitelya-pri-neytralizatsii-kislyh-gazov-obrazuyuschih-sya-pri-szhigani-koksa-v-katalizatore>
11. <https://cyberleninka.ru/article/n/ochistka-dymovyh-gazov-ot-dioksida-ugleroda-iz-promyshlennyh-vybrosov-i-ego-utilizatsiya>
12. <https://cyberleninka.ru/article/n/ekologiya-i-ohrana-okruzhayuschey-sredy-zastroyka-goroda-kuvasaya>
13. <https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/546>
14. <https://cyberleninka.ru/article/n/tekstilnyy-kompleks-deu-tekstayl-kompani-i-ego-vozdeystvie-na-okruzhayuschuyu-sredu>
15. <https://cyberleninka.ru/article/n/puti-intensivnosti-raboty-aeratenkov-s-pnevmaticheskoy-aeratsiey>
16. <https://doi.org/10.47494/mesb.2020.6.103>
17. <https://indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:ajrssh&volume=11&issue=11&article=158>